

**ISLOM DINIDA OTA-ONANI EHTIROM QILISH BORASIDA KELGAN
HADISI SHARIFLAR**

О ХАДИСАХ ОБ УВАЖЕНИИ РОДИТЕЛЕЙ В ИСЛАМЕ

ABOUT HADITHS ABOUT RESPECTING PARENTS IN ISLAM

Ilmiy rahbar: X. U. Samatov

Muratbaeva Miyasar Sabit qizi

Muhammmad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalar universiteti
Samarqand filiali “TTKT” fakulteti 23-05-guruh talabasi

Anotatsiya:

Islom dini, ota-onani hurmat qilishga katta e'tibor beradi. Bu, oila a'zolari o'rtaisdagi hurmat, muhabbat, va qadrlashga asoslangan. Islomda ota-onani hurmat qilish, oila a'zolari orasidagi munosabatlarni kuchaytirish, oilaviy birlik va barqorarlikni ta'minlash uchun keng ko'mak ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: islom, ota-onan, hadis, ehtirom, quron, iymon, oyatlar, alloh taola Islom dini insonning to'g'ri yo'lidan adashib ketmasligi uchun har bir ishda o'z ko'rsatmalarini berib boradi. Shu jumladan, ota-onan haqlarini farzandlar zimmasiga yuklab, ularga doimo hurmatda bo'lishga buyuradi. Quro'ni karimning ko'plab oyati karimalarida ota-onaga yaxshilik qilish, ularning roziliklarini topishga amr qilinadi. Ota-onaga zinhor ozor bermaslik va ularning so'zlariyu fe'lllarini hech malol olmaslikka buyuradi. Bu haqida Alloh taola Isro surasida shunday marhamat qiladi: "Rabbingiz, uning o'zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey inson!) Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga yetsalar, ularga "uf!" dema va ularni jerkinma! Ularga (doimo) yoqimli so'z ayt" (Isro surasi, 23 oyat) Mazkur oyatda Alloh taolo o'ziga ibodat qilishga chaqirgan amridan keyinroq ota-onaga yaxshilik qillishni ta'kidlamoqda. Bu hol o'z navbatida Islomda ota-onaning haqqi qanchalik ulug' ekanini bildiradi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vassalam ham ko'plab hadisi shariflarida ota-onaga yaxshilik qilish, ularning xizmatlarini qilib, duolarini olishga targ'ib qilganlar. Jumladan: "Abdulloh ibn Mas'ud roziyallahu anhudan rivoyat qilinadi: Nabiy sollallahu alayhi vassalamdan: "Amalalrning qaysi biri afzal?", -deb so'radim. "Vaqtida o'qilgan namoz", -dedilar. "Keyin nima?", -dedim. "Ota-onaga yaxshilik qilish", -dedilar. (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyati).



Dona xalqimizda “Nimani eksang, shuni o‘rasan”, “Ota rozi-Xudo rozi” kabi ajoyib hikmatlar bor. Har bir erkak va ayol bu hikmatlardan to‘gri xulosa chiqarib, o‘zini o‘nglashi, xató qilgan bo‘lsa, darrov ota-onalaridan uzr so‘rab, ularning ko‘nglini topish, dillaridan ozorni ketkazish payida bo‘lishi darkor!

Farzand ota-onaning roziligini olish uchun quyidagi amallarni bajarishi tavsiya etiladi.

- Avvalo, barcha ishlarda ota-onadan maslahat olish;
- Ota-onaning nasihatlarini jonu dili bilan qabul qilish;
- Gaplashganda muloyim, yoqimli so‘zlar bilan muomala qilish;
- Biror xizmat buyursalar, “labbay”, deb uni bajarish;
- O‘ziga xush ko‘rgan narsalarni ularga ham ravo ko‘rish;
- Ularning oldida baland ovozda gapirmaslik;
- Ularga “uf” yoki “uh” demaslik;
- Ota-onadan oldin taomga qo‘l uzatmaslik;
- Ota-onsa kirib kelganda o‘rnidan turish va ulardan oldin o‘tirmaslik;
- Ota-onsa huzurida oyoqlarini cho‘zmaslik, yonboshlamaslik;
- Ulardan yuqorida o‘tirmaslik;
- Ota-onsa dam olayotganda ularni bezovta qilmasalik, oldilariga ruxsatsiz kirmaslik
- Ota-onaning ko‘ngillarini topib, roziligini olish;
- Ota-onaning oziq-ovqati, kiyim-kechagi va sog’lig’idan o‘z vaqtida xabar olish;
- Duo qilganda ota-onasining haqlariga alohida duo qilish.

Inson Yoshi o‘tgan sayin o‘zi ota-onsa bo‘lib, farzandlarining oqibatlarini ko‘rgan sayin o‘z ota-onasining naqadar dono bo‘lganini sezib boraveradi. Shuning uchun yaxshilik qilishga eng ko‘p loyiq bo‘lgan zotlar – ota-onalar hisoblanadi. Bu haqida Imom al-Buxoriy Kulayb ibn Manfaadan ushbu hadisni rivoyat qilganlar: Kulayb ibn Manfaa aytadilarki “Mening bobom Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan so‘ragan ekanlar, demak, Kulayb ibn Manfaaning bobosi sahoba bo‘lgan. So‘radilarki, “Kimga yaxshilik qilay, ey Rasululloh?” Rasululloh sollallahu alayhi vasallam aytdilar: “Avval oningga, so‘ngra, otingga, keyin opa-singlingga, aka-ukingga va undan so‘ng qarindoshlaringga yaqshilik qilgin”.

Ushbu hadisi sharifda avval ona, so‘ng ota va keyin opa-singil va aka-ukalar zikr qilindi. Har birining o‘z o‘rni va fazli bor. Ona boshqa ba’zi ko‘rsatmalarda 3 karra ziyoda ekani zikr qilingan. Onaning 3 marta ziyoda qilganiga sabab nima?

Hamasr ulamolarimizdan



biri marhum doctor Mustofa Zuhayliy o‘zining “Tasfiri Munir” degan tafsir kitobida yuqoridagi oyati karimaning tafsirini shunday keltiradi:

Ona otadan 3 karra ziyoda qilindi. Chunki 3ta ishda ona yolg‘iz bo‘lgan bo‘ladi: homilani ko‘tarish mashaqqatida, homilani dunyoga keltirish sinovida va tug‘ilgan bolani 2 yilgacha uyqusini buzib emizish muddatida ona yolg‘iz bo‘ladi. Ota qanchalik mehribon bo‘lmasin, ayolining homiladorlik azobini his qila olmaydi. Qanchalik mehribon bo‘lib ayoli yonida tursa-da, tug‘ruq azobini his qila olmaydi. Kechalari uyg‘onib bolasining beshigini tebratsa ham, u bu ishni ona kabi mehr bilan bajara olmaydi. Onaning shu 3ta ish orqali darjasи orttiriladi. Silai rahmda ota-onaga yaxshilik qilishdan keyin birinchi o‘rinda opa-singillar aka-ukalardan oldingi o‘ringa qo‘yildi. Chunki opa-singillar doim shafqatli va mehribon bo‘lib kelgan. Buni tushungan faqihlarimiz bir masala aytadilar: singil ziyoratiga ketayotgan aka katta bug‘doyzor maydonning orqasida singlisi yashasa, bug‘doyzorni aylanib borguncha vaqt ketishi sababidan o‘sha bug‘doyzorni bosib o‘tib, payhon qilib bo‘lsa-da, singilni borib ko‘rishini shariatimiz ruxsat bergen. Boshqa holatda hosilni payhon qilishga ruxsat yo‘q. Ota-onasi tirik farzand – moli kasodga uchramaydigan tijoratchi misolidir.

Bu mavzuda gap ketsa, o‘z hayotimda sodir bo‘lgan bir qissa doim yodimga tushadi. Umra ziyoratiga borganimda Masjidul-haromdan chiqar ekanman, nogironlar aravasida o‘tirgan juda nuroniy otaxonga ko‘zim tushdi. U kishining yoshi keksa, soch-soqollari oppoq, arab millatiga mansub edi. Men ularning yonlariga borib meni duo qilishlarini so‘radim. Shunda u kishi mendan: “Ey bolam, otang hayotmi?” deb so‘radilar. U mahalda rahmatli ota-onam hayot edi. “Ha, otam bor” deb javob berdim. “Onang bormilar?” deganlariga ham ha deb javob berdim. Shunda u kishi tabassum bilan: “Unday bo‘lsa, ey bolam, sen katta savdogar ekansan. Tijoratingga mustahkam bo‘l, mustahkam bo‘l”, dedilar. Men u kishining peshonasidan o‘pib yo‘limda davom etar ekanman, qulog‘imdan u odamning “Tijoratingga mustahkam bo‘l”, degan gaplari ketmadi.

Ha, ota-onasi eng katta tijoratdir. Hatto hech qachon kasod bo‘lmaydigan tijoratdir. Ota-onasi hayot kishilar buni yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun ular hayotligida g’animat bilib, duolarini olishga harakat qilish kerak.

Eng avvalo, onaga juda e’tiborli bo‘lish kerak. Uni ranjitadigan so‘z va harakatlardan tiyilmoq lozim.

Alloh Muso alayhissalomga shunday dedi:



“Ey, Muso! Bir kishi ota-onasiga qarshi chiqib, tili bilan ularni va yoki ulardan birini xafa qilsa, o’sha kishining tilini kes(tiy, to’xtat)! Har qanday bir a’zosi bilan ularga yoki ulardan biriga ozor bergen farzandning o’sha a’zosini kes!”

Kimki ota-onasini rozi qilib, ularning xayrli duolarini olsa, o’sha kishi uchun jannatdan ikki eshik ochiladi. Ota-onasi rozi bo’lмаган kishi uchun esa jahannamdan ikki eshik ochiladi. Ota-ona farzandga nisbatan zulm qilsalar ham ularga qarshi turilmaydi, qarshi chiqilmaydi. Chunki Alloh taolo Muso alayhissalomga shunday dedi:

“Ey, Muso! Gunohlar ichra shunday bir gunoh borki, og‘irligi dunyodagi tog’larning og‘irligicha keladi”.

Demak, ota-onaning farzandi ustida haqlari juda ko‘p. Farzand ota-onani rozi qilish uchun qo‘lidan kelgancha harakat qilishi kerak. Yuqorida tanishib o‘tganimizdek, farz namozlarni ado qilishdan keyingi eng yaxshi amal ota-onaga yaxshilik qilishdir. Farzand Allohnинг roziligidagi erishish uchun ham ota-onaga yaxshilik qilish, ularni xursand qilish, ularni rozi qilishi kerak ekan. Shu bilan birga farzand siali rahm borasida ham avvola ota-ona, opa-singil, aka-uka va so‘nggi o‘rinda qarindoshlariga yaxshilik qilar ekan. Yana bir hadisda ota-onaga yaxshilik qilib tong ortirgan farzand uchun jannatdan ikki eshik ochilishini ham aytib o‘tilgani ko‘rdik. Demak, biz bu dunyoda ham u dunyoda ham yaxshilik ustida yashashni xohlasak Allohga iyomon keltirib farz amallarni bajarishdan keyin xolis ota-onamizga yaxshilik qilib , ularni roziliklarini topish uchun harakat qilishimiz lozim ekan.

Alloh taolo barchamizni solih farzandlardan qilib, doim ota-onalarimizga yaxshilik qiluvchilardan qilsin! Turli fitna va aldovlarga tushib qolishdan o‘z panohida asrasin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://kukaldosh.uz>
2. <https://xujabuxoriy.uz>
3. <https://islom.uz>
4. <https://sammuslim.uz>
5. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
6. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.



7. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. *Theoretical & Applied Science*, (2), 175-179.
8. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
9. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
- 10.Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
- 11.Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
- 12.Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
- 13.Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.

